QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 22-aprel | 120-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Safarbarlikka belgilangan avtomashinalar Jangovor tayyorgarligini tekshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 22 iyuldagi 259-45 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 019 buyrug‘ining talablari ijrosini ta’minlash, hamda Koson tuman Mudofaa ishlar bo‘limining jangovor shayligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126 – moddasiga O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6 -moddasiga asosan ,

Q A R O R Q I L A M A N :

1.Tumanda mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, tashkilot, muassasalar, safarbarlikka belgilangan avtomashinalarni jangovor tayyorgarligini tekshirish bo‘yicha tuman mudofaa ishlari bo‘limi vakillariga **ilovaga** asosan taqdim etilsin.

2.Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (Z.Hasanov)ga, safarbarlikka belgilangan avtomashinalarni jangovor tayyorgarligini tekshirish jadval asosida tashkil etish topshirilsin.

3.Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tumani hokimining
2025-yil 22-apreldagi
120-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Korxona, tashkilot, muassasa hisobida bo‘lgan texnikalarni tekshirish

J A D V A L I

№	Korxona, tashkilot nomi	Tekshirish kuni
1	Qarshi neftbazasi unitar korxonasi Koson filiali	05.06.2025 y
2	Koson obodonlashtirish boshqarmasi	16.07.2025 y
3	Koson Neft quduqlari sinash ochiq AJ	20.08.2025 y
4	Koson Uzparvtrans AK-3	25.09.2025 y
5	Koson yo‘l qurilish korxonasi	16.10.2025 y